Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI.....	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0.....	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB- QUVVATLASH STRATEGIYALARI

Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich

Oriental universiteti, dotsent, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mirzaakhmedov.n@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy strategiyalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik biznes subyektlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion mexanizmlar kompleks tarzda yoritiladi. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlikni samarali qo'llab-quvvatlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsion iqtisodiyot, qo'llab-quvvatlash strategiyalari, raqobatbardoshlik, innovatsiya, rivojlanish mexanizmlari.

Abstract. This article provides a scientific analysis of modern strategies for supporting small businesses and entrepreneurship in the context of an innovative economy. The study examines factors influencing the development of small business entities, government incentives, and innovation-based mechanisms aimed at increasing competitiveness. In addition, the research offers recommendations designed to enhance the effectiveness of support measures for small businesses in an innovation-driven environment.

Key words: small business, entrepreneurship, innovative economy, support strategies, competitiveness, innovation, development mechanisms.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ современных стратегий поддержки малого бизнеса и предпринимательства в условиях инновационной экономики. Рассматриваются факторы, влияющие на развитие субъектов малого бизнеса, государственные льготы, а также инновационные механизмы, способствующие повышению их конкурентоспособности. Кроме того, предлагаются рекомендации, направленные на повышение эффективности мер поддержки малого предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, инновационная экономика, стратегии поддержки, конкурентоспособность, инновации, механизмы развития.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir, balki hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish uchun, avvalo, ushbu subyektlarni tasniflash mezonlari, ularning iqtisodiy jarayonlardagi o'rni hamda qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinishi zarur.

Mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra, kichik biznes subyektlari mulkchilik shakli, faoliyat sohasi va xodimlar soni kabi mezonlar asosida tasniflanadi. Xuddi shunday mezonlar xalqaro amaliyotda ham qo'llaniladi: xodimlar soni, yillik daromad, aktivlar hajmi hamda korxonaning yuridik mustaqilligi asosiy belgilovchi omillar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tasniflash mezonlari kichik biznesni qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib, tanlanadigan mexanizmlar va ularning qamrov sohasini belgilashda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni¹ bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi kichik biznesni qo'llab-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab berdi. Mazkur hujjatda mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni aniqlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb etish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, qulay biznes muhitini yaratish bilan bir qatorda, yalpi ichki mahsulotda xususiy sektor ulushini 80 foizga, eksportdagi ulushini esa 60 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Bu esa innovatsion rivojlanish tamoyillariga asoslangan yangi yondashuvlarning joriy etilishini taqozo etadi.

So'nggi yillardagi tahlillar kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylanganini ko'rsatadi. Amaldagi islohotlar natijasida biznes uchun qulay infratuzilma yaratilmoqda, tartibga solish tizimi bosqichma-bosqich soddalashtirilmoqda va tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion mexanizmlarni yanada takomillashtirish iqtisodiy faollikning oshishiga, yangi tashabbuslarning paydo bo'lishiga hamda raqobatbardosh korxonalar sonining ko'payishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi davlat tomonidan taklif etilgan to'qqizta strategik mexanizmni qamrab oladi. Mazkur mexanizmlarning uzviy ishlashi innovatsion iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash, yangi tadbirkorlarni rag'batlantirish va kichik biznes subyektlarining raqobatdoshligini oshirishga yo'naltirilgan. Shundan kelib chiqqan holda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash strategiyalarining innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirilishi iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Xalqaro tajribaga ko'ra, kichik biznes milliy iqtisodiyotda texnologiyalarni joriy etish, raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion mahsulotlarni yaratishda asosiy drayver vazifasini bajaradi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi (EU SMEs Report, 2022) kichik korxonalarni innovatsion iqtisodiyotning "barqaror o'sish ustuni" sifatida baholab, texnoparklar, klasterlar va ilmiy markazlar bilan integratsiyani rivojlanishning eng samarali vositasi deb e'tirof etadi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan. M. Mulayev (2025) kichik biznesni rivojlantirishda davlat strategiyalarining ustuvor ahamiyatini ta'kidlab, moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan tashqari innovatsion infratuzilma, startap ekotizimi va biznes-inkubatsiya tizimlarining rivojlantirilishi zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, oddiy kredit yondashuvlaridan voz kechib, venchur investitsiyalari va kafillik jamg'armalari kichik tadbirkorlikni raqobatbardosh sub'yektga aylantiradi.

Xorijiy adabiyotlarda strategik rejalashtirish kichik biznesning innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida talqin etiladi. Malayziyalik tadqiqotchilar R. Idar, Y. Yusoff va R. Mahmood (2012) kichik korxonalarda strategik boshqaruv mexanizmlarining qo'llanilishi raqobatbardoshlik va innovatsion samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini empirik tahlillar orqali isbotlagan. Ularning fikricha, bozor yo'nalishini doimiy monitoring qilish, mijozlar talabi asosida strategik o'zgarishlar kiritish va innovatsion boshqaruv modellari korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi.

Yana bir muhim yo'nalish — moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etishdir. Xalqaro moliya hisobot standartlari va iqtisodiy-matematik modellashtirishga asoslangan yondashuvlar moliyaviy xavflarni kamaytirish, pul oqimlarini optimallashtirish hamda investitsion loyihalarni samarali baholash imkonini beradi. M. Ermatov va A. Akbarov (2022) iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun kichik biznes korxonalarida kredit reytingi tizimi, garovsiz kreditlash va kafillik jamg'armalari mexanizmlarini kengaytirishni taklif qilib, bu yondashuvlarni innovatsion iqtisodiyotning barqaror moliyaviy infratuzilmasi sifatida baholaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar innovatsion iqtisodiyotda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samaradorligi moliyaviy boshqaruv, infratuzilmaviy rivojlanish, strategik rejalashtirish va davlat siyosati integratsiyasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiribgina qolmay, balki milliy iqtisodiy transformatsiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida uning rolini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganishga qaratilib, unda ilmiy abstraksiyalash, solishtirma tahlil, tizimli tahlil va iqtisodiy-statistik yondashuvlar qo'llanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tadqiqotlar va milliy statistik ma'lumotlar asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash strategiyalarining mazmuni tahlil qilindi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo davlatlari tajribasi bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, kreditlash, kafillik mexanizmlari, innovatsion infratuzilma (texnopark, inkubator, venchur fondlar) kabi vositalarning milliy



sharoitga moslashtirilishi baholandi. Kichik biznes korxonalarida pul oqimlarining tarkibini o'rganish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish zarurligi iqtisodiy-tahliliy yondashuvlar bilan asoslab berildi.

Natijada, tadqiqot innovatsion infratuzilma, kredit mexanizmlari va strategik rejalashtirishni integratsiyalash asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning ilmiy-amaliy modelini taklif etishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligi, avvalo, ushbu sektorning resurs bazasi, moliyaviy imkoniyatlari, innovatsion yondashuvlarni qo'llash darajasi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan infratuzilmaviy yordamning tizimli tashkil etilganiga bevosita bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda ko'plab kichik biznes subyektlari uchun rivojlanishning asosiy cheklovlaridan biri investitsiya resurslari va aylanma kapitalga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi hisoblanadi. Bu holat innovatsion loyihalarning keng ko'lamda amalga oshirilishini, texnologik modernizatsiyani jadallashtirishni va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni murakkablashtiradi. Shu sababli, mazkur yo'nalishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklar tomonidan kichik korxonalarni moliyalashtirish jarayonida kredit risklarining yuqori baholanishi foiz stavkalarining oshishiga olib kelishi mumkin. Natijada, kichik biznes uchun kredit olish imkoniyati cheklanadi, garov talablarining qat'iyligi esa yangi loyihalarni boshlashda ma'lum darajada to'siq bo'lib xizmat qiladi. Mazkur holat innovatsion iqtisodiyotga xos bo'lgan texnologik startaplar, ilmiy tadqiqot asosidagi ishlab chiqarish korxonalari va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga qodir biznes subyektlari uchun ayniqsa dolzarbdir. Shu jihatdan, kreditlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, garov talablarini diversifikatsiya qilish, kafillik institutlari va venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish kichik biznes faolligini yanada kuchaytiradi.

Xorijiy tajriba tahlili kichik biznesni qo'llab-quvvatlash strategiyalari har bir davlatning iqtisodiy modeli, innovatsion salohiyati va bozor infratuzilmasiga mos ravishda shakllanishini ko'rsatadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o'rta biznes subyektlari 250 nafargacha xodimga ega, 50 million yevrogacha yillik daromad yoki 43 million yevrogacha balans aktivlariga ega korxonalar sifatida tasniflanadi. Muhimi shundaki, Yevropa mamlakatlarida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash faqat moliyalashtirish choralari o'z ichiga olmaydi. U ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan grant dasturlari, texnoparklar, biznes-inkubatorlar va klaster tizimlari orqali kompleks tarzda amalga oshiriladi. Aynan aktivlar hajmine qat'iy cheklov qo'yilmaganligi korxonalarni innovatsion kengayishga, bozorga yangi mahsulotlar va xizmatlar bilan chiqishga rag'batlantiradi.

AQShda kichik biznes subyektlari yillik daromad va xodimlar soni asosida tasniflanadi. Milliy tasnifga ko'ra, 7,5 million AQSh dollarigacha yillik daromad va 500 nafargacha xodimga ega korxonalar kichik biznes sifatida belgilanadi. Mazkur davlatda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining o'ziga xos jihati shundan iboratki, federal darajadagi dasturlar bilan bir qatorda hududiy dasturlar ham faol qo'llaniladi. Startaplar uchun venchur fondlari, innovatsion rivojlanish markazlari, tadbirkorlikni rivojlantirish milliy agentliklari orqali qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Bunda moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining innovatsion salohiyati ham asosiy baholash mezonini sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash strategiyalarining samaradorligi moliyaviy resurslar bilan birga innovatsion infratuzilma, intellektual kapital va texnologik modernizatsiya mexanizmlarining uzviy uyg'unlashuvi bilan ta'minlanadi. Bu esa innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning barqaror rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga hamda eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotda kichik biznesning barqaror rivojlanishi ko'pincha quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

1. Strategik rejalashtirish va innovatsion boshqaruv. Moliyaviy, operatsion va innovatsion strategiyalarning integratsiyasi korxonalar raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, ko'plab Yevropa davlatlarida kichik korxonalar SWOT-tahlil, ssenariyli rejalashtirish, innovatsion o'sish modellari muntazam foydalanadi.

2. Bozor va tashqi muhitni tizimli monitoring qilish. Tashqi iqtisodiy sharoit, yetkazib beruvchilar, iste'molchilar va raqobatchilarning moliyaviy hamda innovatsion imkoniyatlarini baholash kichik biznes uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Pul oqimlarini samarali boshqarish. Innovatsion loyihalar odatda uzoq muddatli qaytaruvga ega bo'lgani sababli, likvidlikni ta'minlash va pul oqimlarini optimallashtirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

4. Nostandart tahlil metodlaridan foydalanish. Xorijiy amaliyotda biznes risklarini baholashda chiziqli bo'lmagan modellar, texnologik tayyorgarlik indeksi, innovatsion salohiyat ko'rsatkichlaridan keng foydalaniladi.

5. Ishlab chiqarishni optimallashtirish va innovatsion modernizatsiya. Yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish hamda resurslardan tejamkor foydalanish kichik biznesning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.



Xorijiy adabiyotlarning umumlashgan tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy omili — bu faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash emas, balki innovatsion infratuzilma, bilimlar almashinuvi, texnologik transformatsiya hamda strategik rejalashtirishning uzviy uyg'unligidir.

Ruminiyada o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik korxonalarning 75 foizi strategik rejalashtirish vositalaridan muntazam foydalanadi, bu esa ularga bozor o'zgarishlariga tez moslashish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Malayziyalik tadqiqotchilar guruhi olib borgan tadqiqotlar ham kichik biznes faoliyatida strategik rejalashtirishning qo'llanilishi samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ularning fikricha, strategik rejalashtirish bozor ehtiyojlariga tez javob berish, mahsulot va xizmat sifatini oshirish, tadbirkorlik muhitini optimallashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shuningdek, yuqori raqobat sharoitida bozor ma'lumotlariga tayanish — iste'molchilar, kontragentlar va raqobatchilar haqidagi ma'lumotlarni doimiy tahlil qilish zarurati ortadi. Demak, strategik rejalashtirish va bozor yo'nalishiga asoslangan boshqaruv kichik biznesning samaradorligini oshiruvchi muhim instrumentdir.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy tahlilning roli ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, u moliyaviy boshqaruvning markaziy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy mamlakatlarda barcha biznes subyektlari, jumladan, kichik korxonalar ham xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida ishlaydi. O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlari milliy standartlarga tayanadi. Bu farq natijasida moliyaviy ko'rsatkichlarni xalqaro amaliyot bilan bevosita solishtirish qiyinlashadi. Shu sababli, moliyaviy tahlil ko'rsatkichlarini milliy sharoitga moslashtirish bilan birga, xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish zarurati ortmoqda.

Mahalliy amaliyotda moliyaviy tahlil asosan rentabellik, tadbirkorlik faolligi, moliyaviy barqarorlik, likvidlik va to'lov qobiliyati kabi ko'rsatkichlarga tayanadi. Xorijda esa tahlil chuqurroq bo'lib, aksiyalar bahosidagi o'zgarishlar, foyda tuzilmasi, pul oqimlari, majburiyatlar nisbatidagi dinamik ko'rsatkichlar ham baholash mezonlari sifatida qo'llaniladi. Buning o'zi kichik biznes uchun yagona standartlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimini yaratish, innovatsion iqtisodiyot sharoitida strategik boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar va xorijiy tadqiqotlar asosida umumlashtirib aytish mumkinki, kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruv bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribalar nazariy jihatdan katta tafovutga ega emas. Ham mahalliy, ham xorijiy adabiyotlarda moliyaviy boshqaruvning asosiy instrumentlari sifatida moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy tahlil yetakchi usullar sifatida e'tirof etiladi.

Moliyaviy rejalashtirish, eng avvalo, istiqbolli rivojlanishga yo'naltirilgan strategik boshqaruv vositasi sifatida talqin qilinadi. Garchi mahalliy va xorijiy mualliflar uning ahamiyatini bir xilda ta'kidlasalar-da, amaliyotda mahalliy kichik biznes subyektlarining strategik moliyaviy rejalashtirishni joriy etish darajasi xorij tajribasiga nisbatan pastroqdir. Bu holat iqtisodiyotning bosqichma-bosqich modernizatsiyasi davomida ijobiy o'zgarishlar uchun katta salohiyat mavjudligini bildiradi. Shu bois korxonalar mavjud iqtisodiy sharoitni hisobga olgan holda joriy va operativ ko'rsatkichlarni strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirgan holda moliyaviy rejalashtirishni muntazam ravishda amalga oshirishlari lozim.

Moliyaviy boshqaruv nazariyalarida natijalarni baholash bo'yicha kichik biznes uchun maxsus standartlar yoki yagona tahlil metodologiyasi mavjud emas. Shunga qaramay, mahalliy va xorijiy amaliyotda qo'llaniladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar (rentabellik, likvidlik, barqarorlik, pul oqimlari va boshqalar) amaliy qiymatga ega. Xorijiy davlatlarda iqtisodiy-matematik modelashtirishga alohida e'tibor qaratilib, u korxona faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi omillarni baholash, shuningdek, istiqboldagi tendensiyalarni prognozlashning universal vositasi sifatida qo'llaniladi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning barqaror rivojlanishida davlat va moliya infratuzilmasining roli ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, mijozlarga xalqaro standartlarga mos bank xizmatlari ko'rsatish, korporativ, kichik va o'rta biznes hamda chakana sektor uchun zamonaviy moliyaviy vositalarni keng qo'llash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Banklar o'z strategiyasini belgilashda respublika hukumatining bank tizimini isloh qilish, moliyaviy mexanizmlarni joriy etish va moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirish bo'yicha belgilagan ustuvor vazifalariga tayanadi.

Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, birinchi navbatda, moliyalashtirish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni amaliyotga keng tatbiq etish orqali samarali amalga oshiriladi. Bu borada kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda neytral va maqsadli siyosatni qo'llash muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida davlat • moliya bozorida bevosita ishtirok etishi, • ayrim kichik biznes guruhlarini selektiv himoya qilish, • kredit stavkalarini pasaytirish hamda • qulay biznes muhitini yaratishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu tariqa strategik moliyaviy rejalashtirish va qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosatining integratsiyasi, kichik biznesning innovatsion iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari ko'pincha bank kreditlari uchun talab etiladigan an'anaviy garov vositalariga (yer, bino, ko'chmas mulk va boshqalar) ega bo'lmaydi. Ularning asosiy aktivlari ko'pincha ko'chma



mulkdan iborat bo'lgani uchun alternativ kreditlash mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish zarurdir. Bu yondashuv biznesni boshlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi, shuningdek kafolatli ro'yxatga olish vositalarini qo'llash orqali moliyaviy xavfsizlikni oshiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun moliyaviy to'siqlarni kamaytirishning muhim yo'li — moliyaviy vositalarni yaratish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani mustahkamlashdan iboratdir. Bunday infratuzilma qonunlar, normativ hujjatlar, davlat kafolatlari, kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari va kredit hisobotlari tizimini o'z ichiga oladi. Germaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, AQSh va Buyuk Britaniya kabi ilg'or iqtisodiy davlatlar xususiy sektor va kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni samarali amalga oshirib kelmoqda. Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanish strategiyasida xususiy sektor va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilanishi mantiqan asosli va o'z vaqtida qabul qilingan yo'nalishdir.

Mamlakatimizda biznes muhitini liberallashtirish, shaffoflikni ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirishga davlat siyosatining alohida e'tibor qaratayotgani ijobiy natijalar bermoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida xususiy korxonalar deyarli mavjud emas edi, hozirda esa kichik biznes yalpi ichki mahsulotning yarmidan ortig'ini shakllantirmoqda hamda iqtisodiy subyektlarning asosiy qismini tashkil etmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotda kichik biznesning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, xususiy tadbirkorlik aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, mamlakatda ish bilan bandlarning 78 foizi kichik biznes subyektlari doirasida faoliyat yuritadi, aholining 52 foizdan ortiq daromadi esa tadbirkorlik faoliyatidan shakllanadi. Bu holat kichik biznesning inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishdagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Xorijiy tajribalar ham kichik biznesning uzluksiz rivojlanishida moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosan samarali mexanizmlar bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Biroq ko'plab tadbirkorlar innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga intilgan holda, moliyaviy manbalarni izlashda muammolarga duch keladilar. Shu sababli tadbirkorlar mavjud kapitalni oshirishga ko'proq e'tibor qaratib, qarz olish jarayonlarida vaqt va resurs yo'qotilishini minimallashtirishga intiladilar. Mazkur holat moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yanada oshiradi.

Shunday qilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda innovatsion strategiyalarni keng qo'llash iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Kichik biznesni moliyalashtirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

1. Hujjatlarni to'g'ri yuritish. Mamlakatimizda kreditlarning asosiy qismi banklar tomonidan ajratiladi. Biroq kichik biznes subyektlari tomonidan talab etiladigan garov yoki moliyaviy ma'lumotlarning yetarli taqdim etilmasligi kredit olish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shuning uchun korxonalar barcha zarur hujjatlarni to'liq va shaffof yuritishlari zarur.

2. Professional boshqaruv. Ba'zi tadbirkorlar mustaqil ravishda barcha jarayonlarni boshqarishga intiladi, biroq kreditlash bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmalik muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois moliyaviy va huquqiy masalalarda mutaxassislar bilan hamkorlik qilish tashabbuslarning samaradorligini oshiradi.

3. Foiz stavkalari. Kichik biznes subyektlariga beriladigan kreditlar ko'pincha yuqori foiz stavkalari bilan taqdim etiladi. Bu holat tadbirkorlarni faoliyat samaradorligini oshirish, rentabellikni ko'rsatib bera olish va biznes modelining barqarorligini isbotlashga undaydi. Faoliyat natijalarining yaxshilanishi kredit shartlarining qulaylashuviga olib kelishi mumkin.

4. Kredit reytingi. Kredit tarixining shaffofligi kredit tasdiqlanishi va foiz stavkalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kredit intizomiga rioya etish biznes subyektlarining moliyaviy ishonchligini oshiradi va imkoniyatlarini kengaytiradi.

Rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes investitsiyalarni jalb etishda o'xshash muammolarga duch kelmoqda. Bu, asosan, mazkur sektor xavfli aktiv sifatida baholanishi bilan bog'liq. Shu sababli ko'plab mamlakatlar xususiy sektorga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun qo'shimcha imtiyozlar joriy qilmoqda. Masalan, Hindistonda tijorat banklari kredit siyosatlarida kamida 40 foiz ulushni ustuvor sektorlarga yo'naltirishi majburiy etib belgilangan bo'lsa, Bangladeshda institutsional investorlar aktivlarining kamida 30 foizi ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Ilmiy tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lib, ularning O'zbekiston bank tizimiga bosqichma-bosqich tatbiq etilishi milliy kredit siyosatining samaradorligini oshirishi mumkin. Mazkur yondashuv biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan kengroq foydalanishini ta'minlab, iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

Kichik biznes korxonalari faoliyati bo'yicha olib borilgan tahlillar ularning pul oqimlari tarkibida diversifikatsiya darajasi nisbatan cheklangan bo'lib, pul oqimlarida "operatsion faoliyat" asosiy ulushni egallashini ko'rsatmoqda.



Buning sababi sifatida, korxonalarda aynan asosiy faoliyat bo'yicha rejalashtirish, tahlil va nazorat talab qilinadigan xo'jalik operatsiyalarining eng ko'p miqdorda amalga oshirilishi qayd etiladi. Bu holat korxonalar uchun moliyaviy boshqaruv tizimini har tomonlama takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy tahlil kichik biznes korxonalari faoliyatini prognoz qilish, pul oqimlarini samarali boshqarish va strategik rivojlanishni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalalarni hal etish uchun iqtisodiy faoliyat turi asosida balans aktivlarining asosiy moddolari va savdo tushumlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni iqtisodiy-matematik modellar yordamida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pul oqimlarini optimallashtirish, risklarni boshqarish va strategik moliyaviy qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Pul oqimlarini boshqarish kichik biznes korxonalari uchun moliyaviy boshqaruvning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pul oqimlari xo'jalik yurituvchi subyektning haqiqiy to'lov qobiliyatini aks ettirib, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish, rejalashtirish hamda nazorat qilish imkoniyatini kengaytiradi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonaning moliyaviy pozitsiyasidagi o'zgarishlarni baholash, hisobot davrida mablag'larning kirimi va chiqimi bo'yicha aniq ma'lumotlar olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu hisobotda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat natijasida olingan mablag'larning manbalari ham yoritilishi lozim.

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning faol ishtiroki strategik ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa, milliy infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos bank xizmatlarini taqdim etish orqali tarmoq imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Har bir mijozning tarmoq xususiyatlarini chuqur o'rganish, shuningdek korporativ, kichik va o'rta hamda chakana sektor faoliyati samaradorligini oshirish uchun zamonaviy bank vositalaridan foydalanish banklar oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Bank o'z strategiyasini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining bank tizimini isloh qilish, yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish va bank siyosatini modernizatsiya qilish bo'yicha belgilagan vazifalariga tayanadi. Mazkur strategik yondashuv kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtiradi, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi va milliy strategik loyihalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik innovatsion iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu sektorning innovatsion rivojlanishi ijtimoiy farovonlikni ta'minlash bilan birga, iqtisodiy tizimning barqaror transformatsiyasiga xizmat qiladi. Shuning uchun innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash strategiyalari moliyaviy boshqaruv va rejalashtirishni takomillashtirish, kredit, kafillik va garovga oid alternativ mexanizmlar asosida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar yaratishga qaratilgan bozor yo'nalishidagi yondashuvlarni kuchaytirish hamda qonunchilik va institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi lozim. Texnoparklar, biznes-inkubatorlar, kafillik jamg'armalari va grant tizimlari faoliyatini kengaytirish, shariatga mos moliyalashtirish, kredit reytingini shakllantirish va soliq imtiyozlarini joriy etish kichik biznesning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlaydi. Buning natijasida kichik biznesni rivojlantirish aholining bandligini ta'minlash, innovatsion raqobatni kuchaytirish va iqtisodiy subyektlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyasini jadallashtiradi. Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali strategiyalarni joriy etish O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, milliy innovatsion salohiyatni oshirish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilib, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi uchun muhim turki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoni, 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, PF–5780. <https://lex.uz/ru/docs/-4473481?ONDATE=01.04.2022>
3. Konstitutsiya va normativ-huquqiy o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar to'plami — "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari" to'plami (Norma.uz).
4. Kalkan, A., Bozkurk, Ö.C. (2013). Turkiya KOBlarida strategik rejalashtirish vositalari va usullaridan foydalanish va ularni tanlash: rahbarlarning qarashlariga ko'ra. 9-xalqaro strategik boshqaruv konferensiyasi. Procedia – Social and Behavioral Sciences, № 99, 1016–1025-betlar.
5. Abdurahimova, S. (2023). "O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlarining tarkibiy qismlarining barqaror rivojlanish tahlili". Aktual'nyye problemy sotsial'no-gumanitarnykh nauk, 3-jild, 12/1-son. (scienceproblems.uz).
6. Mulayev, O. (2025). "O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari". Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot jurnali, 3-jild, 6-son.



7. Ermatov, A.A., Akbarov, A.A. (2022). "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, № 3, may–iyun.
8. Murodova, N. (2023). "O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: rivojlanishi va faoliyat tahlili". Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, № 1(9).
9. Idar, R., Yusoff, Y., Mahmood, R. (2012). Bozor yo'nalishining strategik rejalashtirish amaliyotlari va natijadorlik munosabatiga vositachi sifatida ta'siri: Malayziya KOBlaridan dalillar. ICSMED 2012 — Innovatsiya va barqarorlik xalqaro konferensiyasi. Procedia Economics and Finance, № 4, 68–75-betlar.
10. O'zbek tilida darslik / o'quv qo'llanma: "Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarish" (3-modul). "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" bo'yicha O'quv–uslubiy majmua.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>